



Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)



Zahiriddin Muhammad Bobur

(1483-1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yili 14 fevral kuni Temuriylar saltanati Farg'ona ulusi poytaxti Andijon shahrida dunyoga kelgan. Chig'atoy turklaridan bo'lgan Bobur ota tomonidan sohibqiron Amir Temurning beshinchi avlodi hisoblanadi. Otasi Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyatining hukmdori bo'lgan. Bobur ilm olish va kitob o'qishni yaxshi ko'rgan. O'n ikki yoshga to'lmay turib siyosat bilan shug'ullangan.



***Har kimki vafo qilsa, vafo topqusudur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusudur.
Yaxshi kishi ko' rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusudur .***



Ulug' shoir va davlat arbobi



Zahiriddin Muhammad Bobur

Qolmadi hurmat ahli olamda,
Olamu olam ahlidin yuv ilik!
Boburo, ikki podsholig'idan,
Yaxshiroq bu zamonda bir beklik.



Mushoira



BOBURNOMA» ASARIDA JOY NOMLARINING QO‘LLANILISHI

“Boburnoma”dagi geografik nomlar, tarixiy sanalar va voqealarning ko‘pligiga qaramay, u oson va qiziqib o‘qiladi. Bobur asarda Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson, Eron va Hindistonning ko‘plab shaharlarini tilga olgan. Andijon, Samarqand, Buxoro, Kobul, G‘azna, Balx, Badaxshon, Dehli, Delavpur, Lohur shaharlarining geografik joylashishi, o‘sha davr xo‘jaligida tutgan o‘rni haqida ma‘lumotlar qoldirgan. U tilshunoslikka doir maxsus asar yozmagan bo‘lsa ham, lekin o‘zining qomusiy asari bo‘lgan «Boburnoma»da tilshunoslikka doir bir qator qimmatli fikrlarni bayon qiladi.

Professor N. Hasanovning ta’kidlashicha, «Boburnoma» asarida 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan. O‘rta Osiyoga doir joy nomlarining ko‘pchiligi hamon o‘sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi. Bulardan ba’zilariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz:

Farg‘ona, Samarqand, Andijon, Buxoro, Koson, Xovos, O‘ratepa, Zomin, Shahrisabz, Qorako‘l, Namangan, Sangzor, Piskent, Ilono‘ti, Ohangaron. Bu kabi joy nomlarini juda ko‘plab uchratish mumkin. Ba’zi birlari esa shaklan o‘zgarib yetib kelgan:

Marg‘inon-Marg‘ilon

Dizak-Jizzax

Toshkand-Toshkent

Chir suvi-Chirchiq

Xo‘qon-Qo‘qon

Siyohob-Soyob

Pashag‘ar-Pishag‘ar

Quzor-G‘uzor

Shorju-Chorjo‘y

Qubo-Quva




Tarixiy kitoblar



“Humoyunnoma”

“Humoyunnoma” – Boburning qizi, malika Gulbadan Begim tomonidan 16 asrning ikkinchi yarmida fors tilida yozilgan tarixiy asar.



Bobur alifbosi

Buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur 1504 yili Kobulni egallaganidan so'ng o'zbek tili uchun maxsus alifbo yaratgan. Bu alifbo "Xatti Boburiy" deb nomlangan.



Toj – Mahal Hindiston



**Foydalangan adabiyotlar:
“Ma’naviyat yulduzlari” kitobi;
Internet resurslar;
Tuzdi: Baymatova D.S. 62-
maktab o’qituvchisi**

